

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Avval ular bizga yetib olishsin // keyin birga jo'namiz.

Ushbu qo'shma gap qismlari orasiga qaysi tinish belgisi qo'yiladi?

- A) ikki nuqta
- B) vergul
- C) nuqtali vergul
- D) tire

2. Qaysi gapda qiyoslash munosabatli bog'langan qo'shma gap mavjud?

- A) Yaxshi o'g'il – el obro'si, yaxshi qiz – uy obro'si.
- B) Suv keldi – nur keldi.
- C) Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi, tafakkur esa uni yoritadi.
- D) Baxt odamni emas, odam baxtni vujudga keltiradi.

3. Qaysi so'zlar ravish turkumiga mansub?

- A) minglarcha, mardlarcha
- B) beaql, mehmonxona
- C) do'stona, to'yona
- D) ertalab, olg'a

4. Qaysi gapda fe'lining hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma'nosida ishlatilgan?

- A) Kun juda qizdiryapti.
- B) Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar ketmoqdaman.
- C) Balki, Habib Abdulla bo'lib, Sahrolarda ochajaksan kon.
- D) Yakshanba kuni dam olishga ketyapmiz.

5. Qaysi gapda chaqmoq so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) Mana chaqmoq chaqdi nogahon, zimiston tun choki so'kilar.
- B) Abdushukur bodom-pista chaqib, achchiq choy ichib, yayrab o'tirardi.
- C) Hindistonda ilon chaqishidan har yili minglab kishi halok bo'ladi.
- D) Iboralarning ma'nosini chaqib olishga harakat qilish kerak.

6. "Haq berilmas, olinur" fikri kimga tegishli?

- A) Fitrat
- B) Behbudiy
- C) A. Qodiriy
- D) G'. G'ulom

7. "G'orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa, izlab yetar edi".

"Rustamxon" dostonidan olingan ushbu parcha kim haqida?

- A) ikki kundosh
- B) Momogul maston
- C) Qizil dev
- D) qalandarlar

8. Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil!

Har kim meni bilsa, bu payomimni degil!

Mendin demagil gar unutulg'on bo'lsam,

Har kimki, meni so'rsa, salomimni degil. (Bobur)

Ushbu ruboiydagi raviyni aniqlang.

- A) l harfi
- B) i harfi
- C) m harfi
- D) n harfi

9. Polvonlar abjirlikda bir-biridan o'tadi, kurashda goh unisi, goh bunisi yutadi.

Ushbu qo'shma gapda sodda gap qismlari qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'langan?

- A) ohang
- B) ayiruv bog'lovchisi
- C) ergashtiruvchi bog'lovchi
- D) nisbiy so'zlar

10. bodparak, barak, shapati ushbu so'zlar qanday so'zlar hisoblanadi?

- A) tarixiy so'zlar
- B) arxaik so'zlar
- C) shevaga xos so'zlar
- D) atamalar



2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Qaysi gapda ikki xil nisbatdagi fe'l ishtirok etgan?

- A) So'zni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilish uchun uning leksik ma'nosini anglash zarur.
- B) Nutqning aniq va ravshan bo'lishi, avvalo, so'zdan to'g'ri foydalanishga bog'liq.
- C) So'zning leksik ma'nosini tushunmaslik uni xato qo'llashga olib keladi.
- D) Tilning biz yo'qotib ulgurgan boyligini tiklash, iste'moldan chiqarilgan so'zlarni o'rniga qaytarish zarur.

12. Tarkibidagi barcha otlar shaxs otlari hisoblanadigan gapni toping.

- A) Shayxontohurdagi guzarda baqqollar, sartaroshlar, zargarlar juda serob.
- B) Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek.
- C) Hulkar goh Avazga, goh Salimga qarab hayron turar edi.
- D) Aravakash mo'mingina, muloyim, kamgap kishi.

13. *"Do'stim, biror narsaga muhtoj bo'lsang, yashirma", - dedi u.*

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma qapning ko'chirma gap qismidagi barcha fe'llar uchun umumiy bo'lgan grammatik ma'nolarni aniqlang.

- A) mayl va shaxs-son
- B) zamon va shaxs-son
- C) mayl va zamon
- D) mayli, zamon va shaxs-son

14. Qaysi javobda tarkibidagi barcha undoshlari un paychalarining ishtirokiga ko'ra o'zaro bir xil tasnif qilinadigan sifatlar qatori berilgan?

- A) go'zal, zebo, baland
- B) yolg'iz, vafosiz, yashil
- C) vafo, havo, suv
- D) o'rmon, dala, maydon

15. Qaysi gapda tirening qo'yilish sababi boshqalaridan farq qiladi?

- A) Qo'l yugurigi – oshga, til yugurigi – boshga.
- B) Hosilning otasi – suv, onasi – mehnat.
- C) Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxti.
- D) Vaqting ketdi – baxting ketdi.

16. Xalq dostonlari haqida berilgan hukmlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) Doston – xalq og'zaki ijodining eng yirik janri bo'lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo'lgan voqealarni bayon qiluvchi asar.
- B) Qahramonlarning sarguzashtlari, o'zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlovchi yirik hajmli she'riy asar xalq dostoni deyiladi.
- C) Odatda, dostonlarning birinchi ijodkori unutilib, ular nasldan naslga, avloddan avlodga o'tishi natijasida xalq mulkiga aylanadi.
- D) Dostonlar mavzu jihatidan rang-barang, mazmunan xilma-xil bo'lganligi bois ularning qahramonlik, romantik, tarixiy dostonlar kabi turlari bor.

17. ... - *tovushlar ohangdorligi, asosan, bir xil tovushlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir.*

Nuqtalar o'rniga mos keladigan atamani aniqlang.

- A) so'z takrori
- B) istiora
- C) alliteratsiya
- D) ishtiyoq

Qismlarga ajratilgan quyidagi matndan kelib chiqib navbatdagi topshiriqlarni bajaring. (18, 19, 20)

Alisher Navoiy

I. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida tug'ildi. Shoirning sherlari XV asrning 60-yillaridayoq mashhur bo'la boshladi. Shoirning ilk devonlari bundan darak beradi.

II. Yillar o'tishi bilan Alisher Navoiy asarlarini shuhrati ortib bordi va butun jahonga tarqaldi. Yevropa va Osiyodagi barcha davlatlarda Alisher Navoiy kitoblarining yoyilishi, ularning o'nlab tillarga tarjima qilinganligi buning yorqin dalilidir.

III. Alisher Navoiy asarlari o'zining badiyligi, mazmundorligi va go'zalligi bilan Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan ustun turar edi.

IV. Shuning uchun uning ustozlari, fors-tojik adabiyotining ulkan namoyandasi Abdurahmon Jomiy Alisher Navoiy ijodi xususida shunday deb yozgan: "Shukrlar bo'lsinki, u she'rlarini turkiy (ya'ni o'zbek) tilida ijod qilgan. Agar u forsiy tilda ijod qilganda, bizning asarlarimizni hech kim o'qimas edi".



18. Matndagi xatoliklar haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Matnning I qismida imloviy xatolik mavjud.
- B) Matnning IV qismida so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud.
- C) Matnning III qismida so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud.
- D) Matnning II qismida qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik mavjud.

19. Matnning qaysi qismida hech qanday xatolik uchramaydi?

- A) I qismida
- B) II qismida
- C) III qismida
- D) IV qismida

20. Matn qismlaridan kelib chiqib, ularda ilgari surilgan fikrlar haqidagi qaysi hukm noto'g'ri ekanligini aniqlang.

- A) Matnning I qismida Navoiyning hayotiga oid ma'lumot berilgan.
- B) Matnning III qismida Navoiy haqida ustozlarining e'tirofi keltirilgan.
- C) Matnning II qismida Navoiyning dunyoga mashhurligi haqida fikr bildirilgan.
- D) Matnning IV qismida Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi haqida fikr bildirilgan.

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 ball dan baholanadi

21. Imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) avf etmoq, tadbiiq etmoq, gursillamoq
- B) suqilmoq, tushunmoq, uchurmoq
- C) tarjimayi hol, shavqat, tazyiq o'tkazmoq
- D) taalluqli, tamoyil, qoyida

22. Qaysi javobdagi gaplarda vergul tinish belgisi o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?

- A) Din, tibbiyot, tarix, huquq va astronomiya sohalarida Amir Temur o'ta biluvchan edi.

Yoshlikda zahmat chekib ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.

- B) Bir kishining bir necha o'g'illari bo'lib, ular tez-tez o'zaro nizo qilib turishar edi.

Mening fikrimcha, o'z o'rnida aytilgan so'z ko'p muammolarning yechimi bo'la oladi.

- C) Odamlarsiz yashama, odamlar orasida bo'l.

Insonni ehtiros emas, uning buyuk bisoti – aqli, tafakkuri boshqarishi kerak.

- D) Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham imoratlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etmoqda.

Navoiy, Bobur, Mashrab singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlab turadi.

23. Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo'lishini istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerak.

Ushbu gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Qaratqich aniqlovchi to'ldiruvchiga tobelanib kelgan.
- B) Ham ot kesim, ham fe'l kesim ishtirok etgan.
- C) Eganing uyushib kelishi kuzatiladi.
- D) Ergashgan qo'shma gap hisoblanadi.

24. Berilgan gaplar va ularda ishtirok etgan fe'l shakllari to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. Istiqlol unut bo'lgan davlatchiligimizni tikladi, yo'q bo'lishga mahkum qilingan tilimizni, millatimizni asradi va aziz qildi.	a)ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi; b)qo'shma fe'l; d)nisbat qo'shimchasini olgan fe'l; e)harakat nomi shaklidagi fe'l;
2. Daryo tomondan guvullab esib turgan shabada yo'l bo'yidagi o't-o'lanlarni silkitar hamda sarg'ayib borayotgan arpalar undan mavjlanar edi.	f)sifatdosh shaklidagi fe'l; g)ravishdosh shaklidagi fe'l.

- A) 1-a, b, d, f; 2-a, b, f, g
- B) 1-b, d, e, f; 2-a, d, f, g
- C) 1-b, d, f; 2-a, b, f, g
- D) 1-a, b, e, f; 2-b, f, g



25. Quyida berilgan soʻzlarni maʼnolari bilan birlashtiring.

1) iztirob; 2) asqatmoq; 3) lutf; 4) islohot; 5) sobitqadam.	a)kerak boʻlmoq, kuniga yaramoq, ish bermoq; b)bir gapda, maqsadda, maslakda mustahkam turadigan; ogʻishmaydigan d)doim bir xilda, sekin yuradigan; e)iltifot, marhamat, oliyjanoblik; f) zavq, shavq, qiziqish; g) ijtimoiy hayotning biron-bir tomonini jiddiy oʻzgartirish; h)ruhan ezilish, siqilish holati; i)yangilanish, zamonaviylashtirish.
--	---

- A) 1-h, 2-a, 3-f, 4-g, 5-d
B) 1-h, 2-i, 3-e, 4-a, 5-d
C) 1-h, 2-a, 3-f, 4-i, 5-b
D) 1-h, 2-a, 3-e, 4-g, 5-b

26. Men sheʼr yozsam, endi uni qogʻozga emas, anov yal-yal yonayotgan oʻtga yozaman .

Berilgan sheʼriy parcha haqidagi toʻgʻri mulohazani aniqlang.

- A) Tuzilishiga koʻra sodda gap hisoblanadi.
B) Ushbu sheʼriy parchada ikkita olmosh ishtirok etgan.
C) Sifatdosh, ravishdosh va sof feʼl ishtirok etgan.
D) Ravish turkumiga mansub bitta soʻz qatnashgan.

27. Quyidagi qaysi fikr Atoyi gʻazali haqida?

- A) Uning bir gʻazalida shoirmi shaydo qiladigan ham, xor-u rasvo qiladigan ham koʻngil deya taʼriflanadi.
B) Uning bir gʻazalida shoir suhbatlashishni xohlaydigan insonlari u bilan suhbat qurishni xohlamasliklaridan shikoyat qiladi.
C) Uning bir gʻazalida goʻzal yor xokisor oshiqning yuziga oyoq bosar ekan, oyogʻi ogʻriydi, “yuzing buncha boʻyradek dagʻal boʻlmasa” deb nozlanadi.
D) Uning bir gʻazalida shoirning yuzi ishq oʻti sababli oltinni yashiradigan darajada sargʻayib ketadi.

28. “Xoja Ahmad Yassaviy – Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidir. Maqomati oliy va mashhur, karomoti matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) erinish. Imom Yusuf Hamadoniyning asʼhobidindur (suhbatdoshi)”.

Ahmad Yassaviy haqidagi ushbu fikr kimning qaysi asaridan olingan?

- A) Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”
B) Bobur “Boburnoma”
C) Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”
D) Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”

29. *Ul sanamkim su(v) yaqosinda paritek oʻlturur, Gʻoyati nozukligidin suv bila yutsa boʻlur.* (Atoyi) Ushbu baytning vaznini aniqlang.

- A) ramali musammani mahzuf
B) hazaji musaddasi mahzuf
C) hazaji musammani maqsur
D) ramali musaddasi maqsur

30. Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilarining toʻgʻri ketma-ketligini toping.

Sen doʻst emassan dedi Iskandar aka doʻst oʻrtogʻini yengilning ostidan ogʻirning ustidan yurishga oʻrgatmaydi

- A) “ , — , ”.
B) “ ” , — : “ ”.
C) “ , , , ”.
D) “ , — , — , ”.

